# ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyul)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta`sirini o‘tkazadi.

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 583,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 106,1 mln. AQSh dollariga yoki 7,2 % ga o‘sdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**




*Ma`lumot uchun: Andijon viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

**ANDIJON VILOYAT BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

TSA da eksport hajmi 280,2 mln. AQSh dollariga (10,7 % ga kamaydi) va import hajmi 1 303,6 mln. AQSh dollariga (12,0 % ga o‘sdi) yetdi. Hisobot davrida – 1 023,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Koreya Respublikasi | 842,5 | 0,2 | 842,2 | 53,2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 186,9 | 34,2 | 152,7 | 11,8 |
| Rossiya Federatsiyasi | 168,0 | 43,2 | 124,8 | 10,6 |
| Qirg’iz Respublikasi | 118,5 | 107,6 | 10,9 | 7,5 |
| Qozog‘iston | 75,9 | 67,7 | 8,2 | 4,8 |
| Turkiya | 39,8 | 6,1 | 33,6 | 2,5 |
| Tailand | 37,9 | 0,0 | 37,9 | 2,4 |
| AQSh | 12,2 | 0,2 | 11,9 | 0,8 |
| Braziliya | 12,1 | 0,0 | 12,1 | 0,8 |
| Chexiya Respublikasi | 11,7 | 0,1 | 11,7 | 0,7 |

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Andijon viloyati, jahonning 74 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (53,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (11,8 %), Rossiya Federatsiyasida (10,6 %), Qirg‘iz Respublikasida (7,5 %), Qozog‘istonda (4,8 %) va Turkiya (2,5 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, qo‘shni davlatlar Qozog‘iston va Qirg‘iz Respublikalari bilan TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston va Afg‘oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 8 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg‘iz Respublikasi (96,7 mln. AQSh dollari), Qozog‘iston (59,5 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (6,4 mln. AQSh dollari), Ukraina (3,8 mln. AQSh dollari), Belarus Respublikasi (1,2 mln. AQSh dollari), Moldava Respublikasi (1,2 mln. AQSh dollari), Tojikiston (0,8 mln. AQSh dollari) va Afg‘oniston (0,8 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir.

**ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-yil. | 2019-yil. | 2020-yil. |
|---|---|---|---|
| **Koreya Respublikasi** | **528,5** | **784,6** | **842,5** |
| Eksport | 1,1 | 0,7 | 0,2 |
| Import | 527,4 | 783,9 | 842,3 |
| Saldo | -526,3 | -783,3 | -842,1 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **129,1** | **168,4** | **186,9** |
| Eksport | 57,2 | 78,5 | 34,2 |
| Import | 71,9 | 89,8 | 152,7 |
| Saldo | -14,8 | -11,3 | -118,5 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **114,1** | **130,7** | **168,0** |
| Eksport | 55,9 | 38,3 | 43,2 |
| Import | 58,2 | 92,5 | 124,8 |
| Saldo | -2,3 | -54,2 | -81,6 |
| **Qirg’iz Respublikasi** | **54,4** | **131,1** | **118,5** |
| Eksport | 43,8 | 113,5 | 107,6 |
| Import | 10,5 | 17,6 | 10,9 |
| Saldo | 33,3 | 95,9 | 96,7 |
| **Qozog‘iston** | **61,9** | **67,7** | **75,9** |
| Eksport | 40,3 | 56,0 | 67,7 |
| Import | 21,6 | 11,7 | 8,2 |
| Saldo | 18,7 | 44,2 | 59,5 |
| **Turkiya** | **23,5** | **28,2** | **39,8** |
| Eksport | 1,2 | 7,3 | 6,2 |
| Import | 22,3 | 20,9 | 33,6 |
| Saldo | -21,1 | -13,6 | -27,4 |
| **Tailand** | **1,6** | **3,5** | **37,9** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Import | 1,6 | 3,5 | 37,9 |
| Saldo | -1,6 | -3,5 | -37,9 |

**ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-yil. | 2019-yil. | 2020-yil. |
|---|---|---|---|
| **AQSh** | **7,2** | **34,5** | **12,2** |
| Eksport | 0,1 | 0,2 | 0,3 |
| Import | 7,1 | 34,4 | 11,9 |
| Saldo | -7,0 | -34,2 | -11,6 |
| **Braziliya** | **3,3** | **7,0** | **12,1** |
| Eksport | 0,0 | 0,1 | 0,0 |
| Import | 3,2 | 6,9 | 12,1 |
| Saldo | -3,2 | -6,8 | -12,1 |
| **Chexiya Respublikasi** | **3,6** | **7,9** | **11,7** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 0,1 |
| Import | 3,6 | 7,9 | 11,6 |
| Saldo | -3,6 | -7,8 | -11,5 |
| **Germaniya** | **4,2** | **13,5** | **8,1** |
| Eksport | 0,0 | 0,2 | 0,1 |
| Import | 4,2 | 13,2 | 8,0 |
| Saldo | -4,2 | -13,0 | -7,9 |
| **Italiya** | **4,7** | **9,8** | **7,9** |
| Eksport | 0,0 | 0,1 | 0,6 |
| Import | 4,7 | 9,7 | 7,3 |
| Saldo | -4,7 | -9,7 | -6,8 |
| **Ozarbayjon** | **0,3** | **2,7** | **7,3** |
| Eksport | 0,3 | 1,0 | 6,8 |
| Import | 0,0 | 1,6 | 0,5 |
| Saldo | 0,3 | -0,6 | 6,4 |
| **Hindiston** | **8,7** | **5,9** | **6,6** |
| Eksport | 0,4 | 0,0 | 0,2 |
| Import | 8,3 | 5,9 | 6,4 |
| Saldo | -7,8 | -5,9 | -6,2 |

**ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln.AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-yil. | 2019-yil. | 2020-yil. |
|---|---|---|---|
| **Ukraina** | **8,3** | **5,9** | **6,1** |
| Eksport | 3,6 | 3,6 | 5,0 |
| Import | 4,6 | 2,2 | 1,1 |
| Saldo | -1,0 | 1,4 | 3,8 |
| **Polsha** | **2,9** | **3,6** | **5,2** |
| Eksport | 0,0 | 0,2 | 0,4 |
| Import | 2,9 | 3,4 | 4,8 |
| Saldo | -2,9 | -3,2 | -4,5 |
| **Meksika** | **1,6** | **3,9** | **4,3** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Import | 1,6 | 3,9 | 4,3 |
| Saldo | -1,6 | -3,9 | -4,3 |
| **Slovakiya** | **1,8** | **2,1** | **4,2** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Import | 1,8 | 2,1 | 4,2 |
| Saldo | -1,8 | -2,1 | -4,2 |
| **Latviya** | **5,8** | **6,9** | **3,3** |
| Eksport | 0,3 | 0,9 | 0,4 |
| Import | 5,5 | 6,0 | 2,9 |
| Saldo | -5,2 | -5,1 | -2,5 |
| **Avstriya** | **0,9** | **5,5** | **2,3** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Import | 0,9 | 5,5 | 2,3 |
| Saldo | -0,9 | -5,5 | -2,3 |

ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 24,0 ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 10,3 % ga oshgan.













Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-iyul oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan o‘sdi (6,2 % ga) va jami TSA dagi ulushi 76,0 % ni tashkil etdi.

# ANDIJON VILOYATINING EKSPORTI
# (2020-yil yanvar-iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning eksportyorlari soni 330 tani tashkil etib, ular tomonidan 280,2 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,2 % ni tashkil etib, ular turli xil tayyor buyumlar (30,3 %), mashinalar va transport asbob uskunalari (29,8 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (22,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,2 %) va nooziq-ovqat ho-ashyo, yoilg'idan tashqari (7,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **280 162,1** | **234 308,8** | **45 853,3** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 23 079,0 | 22 729,6 | 349,4 | 8,2 | 9,7 | 0,8 |
| Ichimlik va tamaki | 196,0 | 196,0 | | 0,1 | 0,1 | - |
| Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari | 21 412,4 | 18 004,9 | 3 407,5 | 7,6 | 7,7 | 7,4 |
| Mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,5 | 0,5 | | - | - | - |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 249,0 | 249,0 | | 0,1 | 0,1 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 1 306,0 | 801,7 | 504,3 | 0,5 | 0,3 | 1,1 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan gan sanoat tovarlari | 63 397,8 | 25 372,6 | 38 025,2 | 22,6 | 10,8 | 82,9 |
| Mashinalar va transport asbob uskunalar | 83 505,3 | 82 643,4 | 861,9 | 29,8 | 35,3 | 1,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 84 905,7 | 82 569,6 | 2 336,2 | 30,3 | 35,2 | 5,1 |
| Xizmatlar | 2 110,4 | 1 741,6 | 368,8 | 0,8 | 0,7 | 0,8 |

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR`ATLARI (2020-yil yanvar-iyul)

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi qora va rangli metallar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, keyingi o‘rinlarda eksport hajmi bo‘yicha asosan mashina va uskunalar va klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda boshqa xizmatlarga to‘g‘ri kelmoqda.

| XSST tarkibi | 2019 yilning yanvar-iyuliga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **89,3** | **108,1** | **47,3** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 32,4 | 37,2 | 3,5 |
| Ichimlik va tamaki | 246,9 | 246,9 | |
| Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari | 77,8 | 79,6 | 69,7 |
| Mineral yoqilg‘l, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 11,3 | 11,3 | |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 140,6 | 140,6 | |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 178,5 | 109,8 | 30,3 m. |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 64,7 | 127,1 | 48,8 |
| Mashinalar va transport asbob uskunalar | 144,1 | 149,0 | 34,7 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 151,5 | 150,0 | 2,3 m. |
| Xizmatlar | 100,0 | 110,2 | 69,7 |

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-iyul, % da)**

2020-yil yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2018-yilning yanvar-iyuliga nisbatan, ichimlik va tamaki, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar, hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o‘sish kuzatildi.

| XSST tarkibi | 2018-yil. | 2019-yil. | 2020-yil. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 23,8 | 22,7 | 8,2 |
| Ichimlik va tamaki | - | - | 0,1 |
| Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari | 2,2 | 8,8 | 7,6 |
| Mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | - | - | - |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | 0,1 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,3 | 0,2 | 0,5 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 34,9 | 31,2 | 22,6 |
| Mashinalar va transport asbob uskunalar | 16,3 | 18,5 | 29,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 21,0 | 17,9 | 30,3 |
| Xizmatlar | 1,4 | 0,7 | 0,8 |

## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020-y. yanvar-iyul)

| XSST bo‘limi nomi | Ming AQSh dollari | 2019-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 21 467,1 | 32,8 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 659,1 | 489,4 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 502,6 | 9,4 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 252,0 | 114,7 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 158,1 | 902,7 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 196,0 | 252,2 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 17 653,9 | 82,7 |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 3 416,8 | 70,1 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 330,3 | 26,7 |
| O’g’itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko’mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 11,4 | 36,4 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 0,5 | 11,3 |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 248,5 | 140,3 |
| Qayta ishlangan hayvon va o’simliklar moylari (yog’lari), yog’lar va mumlar | 0,5 | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Organik kimyo moddalari | 499,4 | - |
| Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar | 209,2 | 93,3 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 191,9 | 103,0 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 147,0 | 430,1 |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar | 121,8 | 80,5 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 5 7491,0 | 60,8 |

XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020-y. yanvar-iyul)

| | | |
|---|---|---|
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 4 016,6 | 232,8 |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 1392,1 | 149,2 |
| Rezina buyumlar | 138,9 | 74,0 |
| Rangli metallar | 115,5 | 235,7 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 72 526,8 | 161,7 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 10 117,3 | 83,4 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | 647,1 | 108,5 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 138,3 | 236,5 |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 59,1 | 20,5 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 72 946,6 | 153,9 |
| Poyabzal | 8 073,1 | 152,1 |
| Har xil tayyor buyumlar | 3 078,7 | 112,6 |
| Yo‘l anjomlari, sumkalar va shunga o‘xshash buyumlar | 429,5 | 136,7 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 290,0 | 114,0 |
| **Xizmatlar** | | |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 125,3 | 78,2 |
| Transport xizmatlari | 512,9 | 273,7 |
| Safarlar (turizm) | 248,4 | 67,7 |
| Tehnik xizmat va ta’mirlash xizmatlari | 223,7 | 191,4 |

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

So‘nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-iyuldagi 69,1 % dan 2020-yil yanvar-iyulida 83,6 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 16,4 % ni tashkil etdi.







2020-yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qirg‘iz Respublikasi (38,4 %), Qozog‘iston (24,2 %), Rossiya Federatsiyasi (15,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (12,2 %), Ozarbayjon (2,4 %), Turkiya (2,2 %), va Belarus (0,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 95,3 foizni tashkil etmoqda.

**ANDIJON VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyul, % da)**

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining bir pog‘onaga tushishi hisobiga, Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan 36 davlatdan 45 davlatga ko’paydi.




**ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR`ATLARI (yanvar-iyul, mln. AQSh. dollar)**

| Asosiy hamkor davlatlar | Eksport | O‘sish sur`ati, % da |
|---|---|---|
| Qirg’iz Respublikasi | 107,6 | 94,8 |
| Qozog‘iston | 67,7 | 121,0 |
| Rossiya Federatsiyasi | 43,2 | 112,9 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 34,2 | 43,6 |
| Ozarbayjon | 6,8 | 6,5 m. |
| Turkiya | 6,1 | 83,8 |
| Belarus | 1,5 | 100,2 |

## ANDIJON VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020 yil yanvar-iyul, ming AQSh. dollar)

| Davlat nomi | Ming AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Qirg'iz Respublikasi | 113 502,3 | 107 595,6 | 258,9 | 94,8 | 1 | 1 |
| Qozog'iston | 78 514,1 | 34 208,8 | 137,3 | 43,6 | 3 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 55 972,0 | 67 705,0 | 138,8 | 121,0 | 4 | 3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 38 266,4 | 43 184,5 | 68,4 | 112,9 | 2 | 4 |
| Ozarbayjon | 7 334,0 | 6 148,5 | 610,6 | 83,8 | 12 | 5 |
| Turkiya | 3 676,6 | 1 163,8 | 2 478,4 | 31,7 | 5 | 6 |
| Ukraina | 3 626,0 | 4 958,8 | 99,6 | 136,8 | 7 | 7 |
| Belarus | 2 143,2 | 541,2 | 585,5 | 25,3 | 10 | 8 |
| Tojikiston | 1 690,1 | 1 233,9 | 425,7 | 73,0 | 13 | 9 |
| Moldova Respublikasi | 1 449,4 | 1 452,4 | 137,7 | 100,2 | 9 | 10 |
| Afg'oniston | 1 050,1 | 7,4 | | 0,7 | 6 | 11 |
| Italiya | 1 047,0 | 6 807,9 | 333,3 | 650,2 | 29 | 12 |
| Litva | 1 025,9 | 1 352,5 | 205,1 | 131,8 | 22 | 13 |
| Eron Islom Respublikasi | 891,1 | 383,0 | 294,3 | 43,0 | 8 | 14 |
| Latviya | 689,6 | | 1 855,2 | | 14 | 15 |
| Polsha | 650,2 | 217,3 | 60,6 | 33,4 | 19 | 16 |
| AQSh | 247,6 | 115,5 | | 46,6 | 20 | 17 |
| Koreya Respublikasi | 200,9 | 379,5 | | 188,9 | 16 | 18 |
| Buyuk Britaniya | 162,4 | 245,6 | 155,9 | 151,2 | 38 | 19 |
| Ruminiya | 140,2 | 188,8 | 161,7 | 134,6 | 21 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

## ANDIJON VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020 yil yanvar-iyul, ming AQSh. dollar)

| XSST tarkibi | Qirg‘iz Respublikasi | | Qozog‘iston | | Rossiya Federatsiyasi | | XXR | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| **Jami eksport** | **113 502,3** | **107 595,6** | **55 972,0** | **67 705,0** | **38 266,4** | **43 184,5** | **78 514,1** | **34 208,8** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 47 510,9 | 13 979,1 | 7 018,9 | 332,3 | 5 946,9 | 8 282,2 | 1 029,6 | 1,7 |
| Ichimliklar va tamaki | 77,7 | 196,0 | 1,7 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 22 420,0 | 17 934,2 | 34,2 | 0,0 | 55,0 | 0,0 | 1 917,4 | 2 176,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 4,8 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,0 | 0,6 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 432,5 | 498,1 | 32,9 | 104,5 | 53,8 | 49,2 | 0,0 | 0,0 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 6 153,7 | 19 907,2 | 609,9 | 554,0 | 12 659,7 | 4 308,0 | 75 565,5 | 32 029,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 2 746,7 | 1 120,2 | 43 337,4 | 63 097,5 | 5 477,2 | 6 899,2 | 0,0 | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 34 126,7 | 53 884,3 | 4 821,3 | 3 390,9 | 12 645,7 | 22 207,6 | 0,0 | 0,0 |
| Xizmatlar | 20,3 | 70,9 | 115,4 | 225,6 | 1 131,5 | 1 170,4 | 1,3 | 0,9 |

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 21,5 mln. dollar qiymatli 39,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 43,8 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 67,2 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 11,2 mln. AQSh dollariga teng 31,0 ming tonna sabzavot, shuningdek, 10,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 8,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2020 yil yanvar-iyul, ming. AQSh dollari)**



| Meva va rezavorlar | Uzum | Qovun va tarvuz | Yer yong'oq | Sabzavotlar |
|---|---|---|---|---|
| 6 550,0 - tonna | 719,1 - tonna | 943,9 - tonna | 125,0 - tonna | 31 038,0 - tonna |
| 8 719,1 - ming AQSh dollar | 1049,9 - ming AQSh dollar | 391,9 - ming AQSh dollar | 197,3 - ming AQSh dollar | 11 191,4 - ming AQSh dollar |

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg‘iz Respublikasi (59,7 %), Rossiya Federatsiyasi (37,4 %), Qozog‘iston (1,3 %), Ukraina (0,6 %), Latviya (0,3 %) va Turkiya (0,3 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI GEOGRAFIYASI (2020 yil yanvar-iyul)

| Davlat nomi | 2019-yil | | | 2020-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Tonna | AQSh dollar | Ulushi* % da | Tonna | AQSh dollar | Ulushi* % da |
| Qirg'iz Respublikasi | 20 535,6 | 46 473,1 | 71,1 | 23 941,7 | 12 818,9 | 59,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 10 189,5 | 5 615,5 | 8,6 | 14 043,5 | 8 028,2 | 37,4 |
| Qozog'iston | 11 739,1 | 6 848,1 | 10,5 | 501,3 | 277,7 | 1,3 |
| Ukraina | 3 280,5 | 548,4 | 0,8 | 422,7 | 126,6 | 0,6 |
| Latviya | 1 854,2 | 595,2 | 0,9 | 264,1 | 72,6 | 0,3 |
| Turkiya | 226,4 | 183,1 | 0,3 | 48,3 | 64,7 | 0,3 |
| Mongoliya | | | | 40,6 | 27,2 | 0,1 |
| Germaniya | 44 | 198 | 0,3 | 20 | 26,4 | 0,1 |
| Afg'oniston | 2 069,6 | 1 474,1 | 2,3 | 138,6 | 13,8 | 0,1 |
| Belarus | 41,2 | 17,2 | | 41,8 | 9,3 | 0,1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1 406,1 | 1 021,7 | 1,6 | 0,4 | 1,7 | |
| Boshqa davlatlar | 3 566,4 | 2 378,8 | 3,6 | | | |

**-qiymat ifodasida*

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 132,5 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 47,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 9,5 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (15,4 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (24,5 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 154 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 23 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyul, ming AQSh dollari)**

| Tovar nomi | 2019-yil. | 2020-yil. |
|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 88 852,7 | 43 241,2 |
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlar | 45 506,4 | 68 532,6 |
| Trikotaj matolar | 1 445,7 | 10 055,5 |
| Naqshli matolar | 1 477,0 | 3 295,5 |
| Boshqa to'qimachilik mahsulotlari | 766,7 | 1 817,8 |
| Maxsus gazlamalar | 225,7 | 134,0 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 4 866,3 | 4 017,4 |
| Gilamlar | 1,1 | 0,4 |

# ANDIJON VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyul)

2020-yil yanvar-iyul oylarida import hajmi 1 303,6 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga o‘sdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (62,3 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (19,9 %), turli xil tayyor buyumlar (5,7 %), shuningdek xizmatlar (5,7 %) ga to‘g‘ri keldi.

**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul, ulushi, % da)**




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko’ra, 2020-yilning yanvar-iyulida import qilingan tovarlar hajmi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 139,6 mln. AQSh dollariga o‘sdi va 1 303,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 65,1 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)**

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlar | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlar | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **1 303 597,8** | **127 316,0** | **1 002 661,4** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 8 864,6 | 3 274,6 | 5 590,0 | 0,7 | 2,2 | 0,5 |
| Ichimliklar va tamaki | 9,5 | | 9,5 | | | |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 12 094,0 | 7 944,0 | 4 150,0 | 0,9 | 5,4 | 0,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 5 718,6 | 4 519,6 | 1 199,0 | 0,4 | 3,1 | 0,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1 709,5 | 1 709,5 | | 0,1 | 1,2 | |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 60 252,6 | 9 206,9 | 51 045,8 | 4,6 | 6,3 | 4,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 251 863,2 | 90 800,9 | 161 062,3 | 19,3 | 62,1 | 13,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 826 511,0 | 27 907,2 | 798 603,8 | 63,4 | 19,1 | 69,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 71 450,5 | 178,0 | 71 272,6 | 5,5 | 0,1 | 6,2 |
| Xizmatlar | 65 124,3 | 721,4 | 64 402,8 | 5,0 | 0,5 | 5,6 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (62,1 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (6,3 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, (yoqilg'idan tashqari) (5,4 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (69,9 %) va turli xil tayyor buyumlar (6,2 %), hissasiga to‘g‘ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O‘SISH SUR’ATLARI (2020-yil yanvar-iyul)**

| XSST tarkibi | 2019-yil yanvar-iyuliga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **112,0** | **113,9** | **111,8** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 67,2 | 41,6 | 105,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 30,0 | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 135,0 | 138,8 | 128,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 89,3 | 83,3 | 122,4 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 2.2 m. | 2,2 m. | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 95,7 | 91,7 | 96,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 111,9 | 125,1 | 105,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 118,7 | 146,6 | 117,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 103,1 | 4,0 | 109,9 |
| Xizmatlar | 80,5 | 28,2 | 82,2 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importining ulushi 13,9 % dan 19,3 % gacha o‘sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 66,2 % dan 63,4 % ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi esa 3,2 % dan 0,7 % ga kamaydi.

## IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020-yil yanvar-iyul, ulushi, % da)

| XSST tarkibi | 2018-yil. | 2019-yil. | 2020-yil. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 3,2 | 1,1 | 0,7 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 1,4 | 0,8 | 0,9 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 0,7 | 0,6 | 0,4 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 0,6 | 0,1 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 5,4 | 5,4 | 4,6 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 13,9 | 19,3 | 19,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 66,2 | 59,8 | 63,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 3,1 | 6,0 | 5,5 |
| Xizmatlar | 5,4 | 7,0 | 5,0 |

## XSST BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)

| Mahsulot nomi | Ming AQSh dollari | O'zgarish sura'tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 2 693,2 | 61,9 |
| Tirik hayvonlar | 2 644,1 | 66,7 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 1 601,4 | 80,9 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 776,1 | 117,5 |
| Sabzavotlar va mevalar | 694,1 | 51,4 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 9,5 | 30,0 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari** | | |
| Probka va yog'och-taxtalar | 6 069,2 | 205,4 |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 2 339,9 | 102,4 |
| Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham) | 1 480,7 | 182,7 |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 1 245,3 | 185,8 |
| O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 734,9 | 60,7 |
| **Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar** | | |
| Ko'mir, koks va briketlar | 4 011,6 | 77,2 |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 1 707,0 | 142,7 |

XSST BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)

| | | |
|---|---|---|
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari | 1 709,5 | 234,5 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 2 4287,0 | 80,5 |
| Bo’yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo’yoqlar | 1 2012,0 | 129,2 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 8 421,6 | 95,8 |
| Organik kimyo moddalari | 5 960,6 | 102,9 |
| Birlamchi shaklda bo’lmagan plastmassalar | 3 867,7 | 80,3 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| Cho‘yan va po‘lat | 102695,6 | 122,6 |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 56 304,1 | 109,3 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 49 646,2 | 114,1 |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 22 038,1 | 113,2 |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 11 785,4 | 84,8 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | - | - |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 76 976,5 | 98,7 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | 73 709,7 | 133,6 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 29 820,6 | 102,0 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 18 554,2 | 118,0 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 26 661,8 | 94,2 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 23 206,0 | 148,0 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 16 093,7 | 94,4 |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 4 158,6 | 187,5 |
| Poyabzal | 678,3 | 61,7 |
| **Xizmatlar** | | |
| Boshqa joylarda tasniflanmagan intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun to‘lovlar | 37 907,8 | 139,9 |
| Boshqa biznes xizmatlari | 16 857,0 | 715,2 |
| Transport xizmatlari | 3 769,1 | 7,3 |
| Texnik xizmat va ta’mirlash xizmatlari | 3 506,2 | - |
| Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari | 3 084,2 | 1674,2 |

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O'SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-iyul)

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga sabzavotlar va mevalar (51,4 % ga), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (61,9 % ga) va tirik hayvonlar (66,7 % ga) importining kamayishi ta`sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining kamayganligi (80,5 %) hamda birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar (80,3 %) bevosita ta`sir etgan.






**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-iyul)**

Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Koreya Respublikasi umumiy import hajmida 64,6 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (9,6 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o‘rinni egallab kelmoqda.

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O‘sish sur`ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-yil. | 2020-yil. | 2019-yil. | 2020-yil. | 2019-yil. | 2020-yil. |
| Koreya Respublikasi | 783 944,9 | 842 249,6 | 148,6 | 107,4 | 1 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 89 837,3 | 152 738,9 | 124,9 | 170,0 | 3 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 92 453,2 | 124 799,1 | 158,8 | 135,0 | 2 | 3 |
| Tailand | 3 493,7 | 37 858,5 | 224,3 | 1083,6 | 18 | 4 |
| Turkiya | 20 908,6 | 33 604,6 | 93,8 | 160,7 | 5 | 5 |
| Braziliya | 6 934,6 | 12 082,2 | 214,8 | 174,2 | 12 | 6 |
| AQSh | 34 386,7 | 11 924,9 | 486,6 | 34,7 | 4 | 7 |
| Chexiya | 7 863,9 | 11 669,8 | 219,7 | 148,4 | 11 | 8 |
| Qirg'iz Respublikasi | 17 643,8 | 10 868,5 | 167,3 | 61,6 | 6 | 9 |
| Qozog'iston | 11 746,3 | 8 192,6 | 54,4 | 69,7 | 8 | 10 |
| Germaniya | 13 213,9 | 7 983,3 | 313,4 | 60,4 | 7 | 11 |
| Italiya | 9 730,2 | 7 341,3 | 205,5 | 75,4 | 10 | 12 |
| Hindiston | 5 931,7 | 6 424,0 | 71,7 | 108,3 | 14 | 13 |
| Polsha | 3 444,6 | 4 844,9 | 120,5 | 140,7 | 19 | 14 |
| Meksika | 3 876,9 | 4 268,8 | 242,0 | 110,1 | 17 | 15 |
| Slovakiya | 2 086,8 | 4 239,2 | 116,5 | 203,1 | 25 | 16 |
| Latviya | 6 013,8 | 2 898,6 | 109,8 | 48,2 | 13 | 17 |
| Avstriya | 5 519,5 | 2 263,9 | 611,1 | 41,0 | 16 | 18 |
| Ispaniya | 823,2 | 2 061,5 | 41,6 | 250,4 | 33 | 19 |
| Birlashgan Arab Amirligi | 547,2 | 1 447,1 | 169,9 | 264,5 | 22 | 20 |

2019-yil shu davri bilan taqqoslaganda import bo‘yicha eng yuqori uchlikda o‘zgarish kuzatilmadi.

**ANDIJON VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020 - yil yanvar-iyul, % da)**

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bo‘yicha Andijon viloyati tomonidan 61 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.




Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Tayland, Turkiya, Braziliya va AQSH) jami importning 93,2 % ini tashkil qiladi, bu 1 215,3 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘sishi tabiiydir. Shunday qilib, Koreya, Rossiya, Xitoy va Tailand tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**MASHINA VA USKUNALAR IMPORTI**

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan 826,5 mln. AQSh dollari miqdorida mashinalar va taransport asbob uskunalar importi amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy import hajmining 63,4 % ini tashkil qildi.

Import qilingan usbu sohada asosiy ulushni avtomobillar (74,1 %), aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar (9,3 %), sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari (8,9 %) egallagan.

Joriy yilning yanvar-iyul yakunlariga ko‘ra, mashina va transport asbob uskunalar importi 2019 - yil yanvar-iyul oylariga nisbatan o‘sish (18,7 %) qayd etildi.

**MASHINA VA USKUNALAR IMPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**

| Mashina va uskunalar | 2019-yil. | 2020-yil. |
|---|---|---|
| Avtomobillar | 503,4 | 612,2 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 78,0 | 77,0 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | 55,2 | 73,7 |

Shu o‘rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan sanoat sohasining avtomobilsozlik tizimi butlovchi qismlari importi o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon avtomobil bilan ta`minlash bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo‘limi
Tel.:74-224-82-57**